



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

I SHO'BA. ZAMONAVIIY TILSHUNOSLIK VA AMALIYOTI MASALALARI

“DEVONI LUG‘OTIT TURK” ASARIDA QO‘LLANGAN MAQOLLARDAGI SOMATIK OBRAZLARNING BADIY TALQIN XUSUSIYATLARI

Alijonova Oydinoy Alijonovna
BuxDPI, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida uchraydigan maqollardagi inson tana a‘zolari nomlari ishtirok etgan birliklar – somatik obrazlar tahlil qilinadi. Asarda qo‘llangan bunday obrazlar turkiy xalqlarning dunyoqarashi, milliy tafakkuri va badiiy tafsil darajasini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy qatlam sifatida o‘rganiladi. Tadqiqotda somatik birliklarning metaforik, majoziy va semantik xususiyatlari aniqlanib, ular orqali xalqning hayot falsafasi, axloqiy qadriyatlari hamda badiiy tafakkuri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘atit turk”, maqol, somatik obraz, metafora, xalq tafakkuri, badiiy talqin, lingvomadaniyat, obrazlilik.

Аннотация. В статье анализируются соматические образы в пословицах, встречающихся в произведении Махмуда Кашгари «Девону лугатит турк» – наименованиях частей тела человека. Используемые в работе образы рассматриваются как важный лингвокультурный пласт, отражающий мировоззрение, национальное мышление и уровень художественного выражения тюркских народов. В исследовании выявляются метафорические, образные и семантические свойства соматических единиц, через которые раскрываются философия жизни народа, нравственные ценности и художественное мышление.

Ключевые слова: Махмуд Кашгари, «Девону лугатит турк», пословица, соматический образ, метафора, народное мышление, художественная интерпретация, лингвокультура, образность.

Abstract. This article analyzes the somatic images in proverbs found in Mahmud Kashgari's "Devonu lugatit turk" names for parts of the human body. The images used in the work are considered an important linguistic and cultural layer reflecting the worldview, national thinking, and level of artistic expression of the Turkic peoples. The study identifies the metaphorical, figurative, and semantic properties of somatic units, through which the people's philosophy of life, moral values, and artistic thinking are revealed.

Keywords: Mahmud Kashgari, "Devonu lugatit turk," proverb, somatic image, metaphor, folk thinking, artistic interpretation, linguistic culture, imagery.

Jahondagi ko‘plab tillarda yaratilgan maqollarning asosiy qismini somatik komponentli maqollar tashkil qiladi. Somatik komponentli maqollarning tarkibidagi somatizmlar, ya‘ni tana a‘zolari nomlarini bildiruvchi so‘zlar qatnashgan birliklardir. Somatik obrazlarda har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma‘naviyati, urf-odatlar va an‘analari o‘z aksini topgan bo‘ladi.

Mahmud Koshg‘ariy to‘plagan maqollar juda qadimdan turkiy tillarda mavjud bo‘lgan va ular turli urug‘ va qabila vakillarida yozib olingan. Eng qadimgi turkiy xalqlarning til xususiyatlarini o‘rganishda bu materiallar kata ahamiyat kasb etadi. Maqollar hozirgi o‘zbek adabiy tilining rivojlanishida, til va meyorlarning o‘sishida alohida rol o‘ynaydi. Maqolamiz uchun 16 ta somatizmlar (tana a‘zolari) qatnashgan maqollarni “Devonu lug‘atit turk” tarkibidan ajratib oldik.

Bu borada lingvokulturologik obyekt bo‘la oladigan maqollarni quyidagicha tahlil qilamiz:

“Quruq qashuq ag‘izga jaramas, quruq so‘z quloqqa jaqishmas” (Quruq qoshiq og‘izga yoqmas, quruq so‘z quloqqa yoqmas). Quruq qoshiqni og‘izga solgan bilan qorin to‘ymaydi. Shunga o‘xshab quruq so‘zdan ham naf yo‘q. Qoshiqni boshqa maqsadda emas,

aynan taomlanish uchun og'izga solinishi kerakligini madaniyat jihatdan ham bog'liqligini ko'ryapmiz. Hozirda "Quruq qoshiq og'iz yirtar" maqoli mavjud va u aynan o'sha ma'noni bermasa ham o'zgargan holda yetib kelgan. "Quruq" leksemasi bu yerda tarbiya, yo odob, yoki biror kimga foyda, naf keltirmaydigan so'z ma'nosida qo'llanilyapti.

"O'kuz azaqi bo'lg'incha, buzag'u bashi bo'lsa yik" (Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'l). Kishining erki, mustaqilligi hamma narsadan muhim ekanligi "buzoqning boshiga", bo'ysunish, tobelik "ho'kizning oyog'iga" o'xshatilyapti. "Bosh" leksemasi bu o'rinda yuqori, "oyoq" leksemasi esa quyi ya'ni antonimlik – zidlik, qarama-qarshilik aks ettirilgan. "Bosh" va "oyoq" leksemasi ozodlik va qaramlikni ifodalash uchun ham qo'llanilyapti.

Ag'iz yesa ko'z uyalur" (Og'iz yesa ko'z uyalur). Bu maqol birovning biror narsasini yeganlar uning hojatini chiqarishi lozimligini ko'rsatish uchun aytiladi. "Ko'z" leksemasi birov bergan taomdan yegandan so'ng uning ishini bitirib berishligi, uyalish hissiyoti bilan bog'langan. Uyat, andisha turkiy xalqlar mentalitetiga xos bo'lgan etalon sanaladi.

Erik erni yag'lig', ermagu bashi kanlig' – tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonlik. Chunki tirishqoq ko'p ishlab, yaxshi taomlar, go'sht, yog'lar topadi. Erinchoq o'zining yalqovligi bilan ishdan qochadi. Xafalikdan boshini uradi, uni qonatadi. Bu maqol yalqovlikni tashlashga g'ayrat bilan ishlashga aytiladi. «Boshi qanlig'» bu yerda hayot yo'lida yo'liqadigan inson sinoviga nisbatan ham ishora qilinyapti

Izlik bo'lsa er o'ldirmas, ichlik bo'lsa at yag'rimas – choriq bo'lsa, odamning oyog'i og'rimaydi, to'qim bo'lsa ot yag'ir bo'lmaydi. Bu maqol ish ketini o'ylashga undab qo'llanadi.

Erdam bashi til – odobning boshi til. Shirin tilli bo'lgan kishi yuqori martaba topadi. Madaniyatimizda bolalarga salom berishni, shirinso'z va muloyim bo'lishni o'rgatamiz. Yana yoshlikdan bolalarimizga kattalarga salom berishni, kichiklarni izzat qilishlikni o'rgatamiz. Bu maqol ham madaniyatimizning tildagi ifodasidir.

Besh erangak tuz ermas – besh qo'l barobar emas. Shunga o'xshash odamlar ham bir – biridan farq qiladi. Bu yerdagi qo'l leksemasi, besh barmoq, besh panja ma'nosini ifodalash uchun qo'llanilgan. Jamiyatdagi tenglik yo tengsizlik haqida so'z boryapti

Yalinguq urulmish qap ul, ag'zi yazilib alqinur – odam bolasi puflab shishirilgan mesh kabidir, og'zi ochilsa, el uni yo'qotadi, so'ndiradi.

Qulaq eshitsa, ko'ngil bilir,

Ko'z ko'rsa, uzik kelir – quloq so'zni eshitsa, ko'ngil biladi, ammo ko'z seviklisini ko'rsa, shavq qo'zg'aladi.

Yag'ini atqlasa bashqa chiqar – dushmanni kichik hisoblasa boshga chiqadi, ya'ni bu bilan boshni halok qiladi, degan mazmun anglatadi. Ehtiyot bo'l va dushmanni kichik hisoblama, demoqchi bo'ladilar. Xalqimizda dushmanni kichik hisoblama u o'zining yomonligi bilan kichik bo'lsa ham ziyon keltira oladi degan hikmat bor.

It chaqiri atqa tegir,

At chaqiri itqa tegmas – chag'ir ko'zli it otga tenglashadi, ammo chag'ir ko'zli ot itga tenglasha olmaydi, chunki bu xil otning ko'zi xira bo'ladi. Inson biror qobilyati bilan yuqori mansab orttira oladi, lekin boy bolasi ekanligi boy otasining fazilati unda ham borligini anglatmaydi. Kishi mehnati va qobilyati

bilangina natijaga erisha olishligi «chag'ir ko'zli it otga tenglashadi» deb o'xshatilgan.

Karish yag'iri o'g'ulqa qalur – ot kaftining yag'iri o'g'ulga meros qoladi, chunki kift bo'g'inlar to'planadigan joy bo'lib u yerdagi yag'ir tezda tuzalmaydi. Bu bilan yag'irdan saqlanishga buyuriladi. Yana shuni aytish mumkinki turkiy xalqlar madaniyatida otasining aybi yo yaxshiligi o'g'liga meros qoladi chunki „olmaning tagiga olma tushadi“ maqoli ham yuqoridagi maqolga ma'no jihatdan bir xil deb ayta olamiz.

Eshyak ayur bashim bo'lsa, Sundurida suv ichkayman – eshak aytadi boshim omon bo'lsa, dengizdan suv ichaman. Bu maqol maqsadga erishish uchun uzun umr orzu qiluvchilarga nisbatan qo'llaniladi.

Tilin tugmishni tishin yazmas – til bilan bog'langan tish bilan yechilmas. Bu maqol vadaga vafo qilishga undab aytiladi. Vadaga vafo erkaklarning nomusi kabi yuqori pog'onada turadi. Aynan turkiy xalqlarda muhim qadriyat sifatida tilga olinadi.

Ko'kka sag'ursa, yuzga tushur – osmonga tupursa, yuzga tushar. Bu maqol o'zidan katta bilan qarshilashish istaganda (og'irlik) o'ziga tushishiga aytiladi.

Bushlaglansa buxsuqlanur – kishi manmanlikka borsa, o'rgatuvchini tahqir qilsa, qo'li gardanida bo'ynida bo'ladi, tashvishi ortadi. Bu maqol faqat o'zi bilganicha ish istovchilarga nisbatan qo'llanadi. Manman kishi bo'ynigacha tashvishga botishiga ishora qilinyapti.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, “Devoni lug'otit turk” asaridagi maqollarda uchraydigan somatik obrazlar turkiy xalqlarning mentaliteti, hayot falsafasi va badiiy tafakkurini chuqur aks ettiradi. Mahmud Koshg'ariy keltirgan maqollar orqali inson tanasiga oid so'zlar nafaqat leksik birlik, balki majoziy-badiiy ramz sifatida namoyon bo'ladi. Ular xalqning ruhiy olami, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy tajribasini ifodalashda semantik zichlik va obrazlilik kasb etadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, somatik obrazlar orqali yaratilgan metaforalar turkiy xalqning nutq madaniyati, estetik didi va xalq og'zaki ijodi an'analarini yoritishda muhim manba hisoblanadi. Shu bois “Devonu lug'atit turk”dagi maqollarni lingvomadaniy va badiiy talqin nuqtayi nazaridan o'rganish o'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mahmud Koshg'ariy “Devonu lug'atit turk”. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi S.M.Mutallibov. Tom I II III. – Toshkent, 1960-1963.
2. Usmonova Sh.R. O'zbek va turk tillarida somatik frazeologizmlar: f.f.n. diss. – Toshkent, 1998. 136-bet.
3. Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Дисс кан. филол. наук.Т.,1976.-146 с.
4. Bakirov B.U. Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit turk” asaridagi maqollar xususida // DLT va TXMHJSTO' Samarqand, 2002.
5. Mahmudov N. O'xshatishlar va milliy obraz. O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 2013.
6. kizi Rustamova, G. B. (2025). TRANSFORMATIONAL ASPECTS INHERENT IN DENDRICAL IMAGES IN NEW UZBEK LITERATURE. Bulletin news in New Science Society, 2(6), 291-298.
7. Bakhronovna, G. R. (2023). The Paradigmatic Relationship of the Tree as Well as Water and Fire in Folklore. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(5), 237-242.
8. Rustamova, G., & Sharofova, G. (2024). USMON AZIM SHE'RIYATIDA KO'Z BILAN BOG 'LIQ SOMATIK OBRAZLAR DINAMIK POETIKASI. Solution of social problems in management and economy, 3(1), 43-46.
9. Bakhronovna, R. G., & Saidaxmedovna, O. R. D. (2024). Renewal of Artistic Movements in Modern Poetry. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 186-192.
10. Bakhronovna, R. G. (2024). Irony as a Type of Movement in Artistic Literature. Journal of Intellectual Property and Human Rights, 3(4), 231-235.
11. Saidakhmedovna, U. D., & Bakhronovna, R. G. (2022). Some Comments on the Expression of the Image of “Life Tree” In Legends and Narrations. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(6), 51-55.
12. Kizi, R. G. B., Ubaydullayevna, N. Y., & Kizi, M. M. I. (2020). The image of trees in folklore: Genesis and poetic interpretations. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 6342-6349.
13. Рустамова, Г. (2021). ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИДА АНОР ПОЭТИК ОБРАЗИНИНГ БАДИИЙ ИФОДАСИ: Рустамова Гавҳар Баҳрон қизи Бухоро давлат университети таянч докторанти. In Научно-практическая конференция (Vol. 1, pp. 287-291).

SIROJIDDIN SAYYID SHE'RIYATIDA VATAN MADHI

Amonov Ulug'murod Sultonovich

BuxDPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Shukurova Gulixonim Ilhom qizi

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi

2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek she'riyatining yorqin vakillaridan biri Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan mavzusining badiiy talqini "Vatanni o'rganish", "Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni" va "Onamning kulchalari" to'plamlari misolida tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: Sirojiddin Sayyid, Vatan madhi, Vatan tuyg'usi, Ona zamin, Vatan timsoli, badiiy ifoda, sadoqat va fidoyilik.

Kirish. Vatan — har bir inson qalbining eng ezgu, eng muqaddas tuyg'ularini uyg'otuvchi so'z. Bu so'zda ona mehridek iliqlik, ota mehridek g'amxo'rlik, ajdodlar izidek muqaddaslik mujassam. Adabiyotimizda bu buyuk tushuncha yuzlab shoirlar, yozuvchilar tomonidan tarannum etilgan. Ular orasida zamonaviy o'zbek she'riyati vakili Sirojiddin Sayyidning o'rni beqiyos. Shoirning "Vatanni o'rganish", "Qaldirg'ochlarga ber ayvonlaringni", "Bug'doybo'y Vatan", "Dil fasli" va "Onamning kulchalari" nomli to'plamlaridan joy olgan ijod namunalari Vatanni tarannum etishda tahsinga sazovordir. Uning she'riyatida Vatan obrazi yuksak ma'naviylik, burch va sadoqat timsoli sifatida gavdalanadi. Shoir uchun Vatan – bu shunchaki ona tuproq emas, bu insonning orzulariga zamin bo'lgan maskandir. Masalan, uning mashhur "Vatanni o'rganish" she'rida quyidagi misralar bor:

Men Vatanni o'rganmadim zaridan,
O'rganmadim uni hur yo paridan.
Kaftlarning chiziqlari – xati ham
Ajinlari bo'ldi mening xaritam...

Bu satrlar o'zbek she'riyati tarixidagi eng yurakka yaqin, eng samimiy Vatan izhori desak mubolag'a bo'lmaydi. Shoir Vatanni kaftdagi chiziqlar, ajdodlar ruhi, onalar allasi orqali his qiladi. Shoir "hur yoki pari" emas, oddiy odamlarning hayotidan, onalarning allasidan, otalarning duosidan o'rgangan. Bu she'rda Vatanga muhabbat – shunchaki satrlar emas, ko'ngil sadosidir.

Shoir ijodida Vatan timsoli bevosita shoirning bolalik xotiralari, ona mehri, tabiat manzaralari, qadimiy qadriyatlar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, "Vatanni anglash" she'rida bu ifoda chuqurroq ko'zga tashlanadi:

Shabnam-shabnam tonglarda
Jayronlarga aylangan,
Onang suvlar sepganda
Rayhonlarga aylangan,
Bir kechada sog'inching
Osmonlarga aylangan,
Sog'inchlaringday zangor
Osmonlari Vatandir. [2. 8-b]

Bu she'r bandida Vatanga bo'lgan sog'inch, ona mehri va yurakdagi tuyg'ular timsollar orqali nihoyatda nozik va poetik shaklda ifodalanadi. Shoir tong saharida yomg'irdan qolgan mayin shabnamlarni go'yoki yurak sog'inchi kabi tasvirlaydi. Bu shabnamlar go'yo sokin va beg'ubor holatda yer uzra yotibdi, biroq birdan jayrondek sog'inchga, yurakning yovvoyi, erkin iztirobiga aylanadi. Bu ifoda qalbdan bezovtalik, yurakning hayajonini his ettiradi. Shoirning keyingi tasviri — ona obraziga bag'ishlangan. Ona harakatsiz emas, suv sepmoqda — bu o'zbek xalq an'analaridagi hayotni duo bilan boshlash, uyga baraka keltirish ramzidir. Ammo bu yerda